

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

*Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori  
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari  
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori  
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori  
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli  
qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktorant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy .....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistenti	
Innovatsion faoliyatning asosi – intellektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DSc), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxuyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
“История экономических учений” как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o‘qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурабаевич</b> , доцент	
Soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari ....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li</b> , talaba	
Hayot sug‘urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o‘qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o‘qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o‘qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlarini.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o‘qituvchi	
Tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistent	
O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullayevich</b>	
O‘zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе .....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari.....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o‘g‘li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotch	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country’s economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li</b>	
Bank daromadlilik ko‘rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta’siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistent o‘qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari .....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n, dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish .....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxitdinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики.....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# O'ZBEKISTON YOSHLARIDA VOLONTYORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA HUQUQIY MEXANIZMLARI: JAHON VA MAHALLIY TAJRIBA



**Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich**  
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada jamiyatimizda yoshlarning volontyor sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishi davlatning paternalistik funksiyalari qisqarishi va jamiyatda demokratik institutlar ta'siri oshishiga olib kelishi mumkinligi asoslangan holda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Volontyorlar maktabi", "Volontyorlar markazi" paternalistik funktsiya, o'zaro yordam, mnstitutsional.

**АННОТАЦИЯ:** в данной статье непосредственное участие молодежи в качестве волонтеров в общественно-политических процессах в нашем обществе объясняется тем, что могут быть снижены патерналистские функции государства и увеличено влияние демократических институтов в обществе.

**Ключевые слова:** "Волонтерская школа", "Волонтерский центр", патерналистская функция, взаимопомощь, институциональная.

**Abstract:** in this article, the direct participation of young people as volunteers in socio-political processes in our society is explained based on the fact that the paternalistic functions of the state can be reduced and the influence of democratic institutions in the society can increase.

**Key words:** "Volunteer School", "Volunteer Center" paternalistis funstion, mutual aid, institutional.

## KIRISH

O'zbekistonda volontyorlik faoliyatini rivojlantirish omillari, mexanizmlari haqida so'z yuritishdan oldin rivojlangan davlatlar tajribasiga, xususan, AQSh tajribasiga e'tibor qaratish lozim. Amerika Qo'shma Shtatlarini haqli ravishda ko'ngillilikning aholi orasida mashhurligi yuqori va volontyorlik faoliyati orqali bilvosita tarzda siyosiy jarayonlarni boshqarishda boy tajribaga ega davlat, deb hisoblash mumkin.

Qo'shma Shtatlarda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar hayotida volontyorlik katta rol o'ynaydi. U tashkiliy jihatdan keng tarqalgan va uchinchi sektorning ko'plab tashkilotlari faoliyatiga kiritilgan; jamiyat hayotining ijtimoiy, madaniy, siyosiy va boshqa sohalarida barqaror o'rin egallagan. Ko'p jihatdan bu holatni Amerikaning davlat sifatida shakllanishining deyarli butun davri – Amerika tarixining uch asrluk davri ko'ngillilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlash mumkin.

1960-yillarda Sharqiy va G'arbiy Yevropa o'rtasida do'stlik aloqalarini o'rnatishni maqsad qilgan o'nlab tinchlikparvar ko'ngillilar dasturlari paydo bo'ldi. 1980-yillardan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'ngilli loyihalar keng tarqaldi. Ayni paytda YuNESKO huzuridagi Xalqaro ko'ngillilar tashkilotlarini muvofiqlashtiruvchi qo'mitasi (SSIVS) tomonidan dunyoning 50 ta davlatidan turli tashkilotlar har yili 500 dan ortiq xalqaro yoshlar mehnat lagerlarini o'tkazadi. Bu volontyorlik lagerlarining maqsadi aniq bir shahar, qishloqqa davlat yetarli mablag'ga ega bo'lmagan holatda loyihani amalga oshirishga ko'maklashishdir<sup>1</sup>.

Ko'ngillilar harakati keng ko'lamdagi siyosiy jarayon sifatida AQSh, Angliya, Germaniya Ispaniya, Fransiya, Finlyandiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Ko'ngillilar harakatida talabalar, universitet professor-o'qituvchilari, turli kasb egalari ishtirok etishadi. Ular hayotda o'z o'rinlariga ega. Ammo mehnat ta'tillarini yanada faolroq mashg'ulot bilan o'tkazishni xohlashadi.

1 Европа в эпоху перемен. [https://www.dipasademy.ru/dosuments/993/ISBN\\_978-5-9907695-3-3.pdf](https://www.dipasademy.ru/dosuments/993/ISBN_978-5-9907695-3-3.pdf)



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yevropa fuqarolarining ko'ngillilik sohasidagi yutuqlarini e'tirof etish va Xalqaro ko'ngillilar yili ning o'n yilligi munosabati bilan Yevropa Komissiyasi 2011-yilni Yevropa ko'ngillilar yili, deb e'lon qildi. Kelgusi yilda Xalqaro notijorat uyushmasi sa'y-harakatlari bilan Bryusselda "Yevropa yoshlar forumi" (European Youth Forum) bo'lib o'tdi. Ko'ngillilarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi qabul qilindi. Unda aytilishicha: Yevropada yuz milliondan ortiq odam ko'ngilli, ya'ni o'nta yevropalikdan uchasi ko'ngillilik ishlarida qatnashishlarini aytishadi va Yevropa aholisining deyarli 80%i ko'ngillilik faoliyatini Yevropadagi demokratik hayotning muhim siyosiy va ijtimoiy qismi deb biladi.

Amerika ko'ngillilar harakatining 1960-yillarda kuchayishi haqida gapirishdan oldin XX asr birinchi yarmida Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'ngillilik bilan bog'liq ishlar qanday bo'lganini tushuntirishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, bu mamlakatda ko'ngillilar tashkiloti Fuqarolik tabiatni muhofaza qilish korpusi (Civilian Conservation Corps, CCC) Prezident Franklin Ruzvelt tomonidan yoshlar ishsizligini kamaytirish, uning salohiyati va axloqiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun tashkil qilingan. Dastlabi vaqtlarda tashkilot uylanmagan ishsiz yigitlar uchun (birinchi 18-25 yosh, keyinroq 17-28 yosh) 1933-yildan 1942-yilgacha amal qilgan federal moliyalashtirilgan ixtiyoriy davlat yordam dasturi edi<sup>2</sup>.

Tashkilot prezident Franklin Ruzvelt bilan federal, shtat va mahalliy hukumat yerlarida tabiiy resurslarni saqlash va rivojlantirish uchun jismoniy mehnatdan foydalanishni o'z ichiga olgan Yangi kelishuvning muhim qismi edi. Dastur Qo'shma Shtatlardagi Buyuk Depressiyadan keyin yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularning ota-onalariga yordam berish uchun ishlab chiqilgan edi. Harakat ishtirokchilarining maksimal soni bir vaqtning o'zida 300 ming kishini tashkil etgan.

To'qqiz yil ichida Korpus ishida uch million yoshlar ishtirok etdi, ular mehnat lagerlarida uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat va oyiga 30 dollar miqdorida belgilangan maosh bilan ta'minlandi, 25 dollarni ota-onalarga yuborishga ruxsat berildi. Korpus faoliyatini Amerika aholisining qariyb 90% qo'llab-quvvatladi. Ammo Ikkinchi Jahon urushi paytida korpusning ishi to'xtatilgan edi<sup>3</sup>.

Endi O'zbekistonda bu borada qilingan ishlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Qonunga ko'ra, volontyorlik faoliyati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- kam ta'minlanganlar, ishsizlar, ko'p bolalilar, boshpanasizlar, qarovsiz qolganlar, shuningdek, ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida volontyorlik yordami ko'rsatish;
- bemorlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'izlar, qariyalar hamda o'zining jismoniy, moddiy yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari sababli qo'llab-quvvatlashga va yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarni parvarishlashni amalga oshirish<sup>4</sup>;
- tabiiy yoki texnogen tushdagi favqulodda vaziyat oqibatida, alohida rejim, favqulodda holat joriy etilganda, ijtimoiy mojarolar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, jinoyatlardan jabrlanganlarga, qochqinlarga, mamlakat ichkarisida ko'chib yurganlarga yordam ko'rsatish<sup>5</sup>;
- o'zining jismoniy yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari sababli o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish imkoniyati cheklangan shaxslarga yordam ko'rsatish;
- turli ommaviy-siyosiy faoliyatlar, xususan jamoat tadbirlarini tashkil etish bilan bog'liq milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishga ko'maklashish;
- alohida davr va favqulodda holat huquqiy rejimlarining amal qilishi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga, boshqa harbiy idoralarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlik yordami ko'rsatish<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga binoan, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar quyidagi huquq va majburiyatlarga ega.

O'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini, basharti bu faoliyat ularning sog'lig'iga hamda axloqiy rivojlanishiga zarar etkazmasa va o'quv jarayonini buzmasa, amalga oshirishi mumkin.

2 Гражданский корпус охраны окружающей среды. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

3 Гражданский корпус охраны окружающей среды. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

4 Zamonov O. Volontyorlikning huquqiy doirasi belgilandi. [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/volonterlikning\\_huquqiy\\_doirasi\\_belgilandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/volonterlikning_huquqiy_doirasi_belgilandi).

5 O'sha manba.

6 Raimbekova C. Volontyorlik faoliyati bu nima? <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=36552>. O'zbekiston Respublikasining 02.12.2019-yildagi O'RB-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/doss/4623999>.



Favqulodda vaziyatlar oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir ishlarni amalga oshirish uchun faqat o'n sakkiz yoshdan katta bo'lgan volontyorlarga ijozat beriladi<sup>7</sup>.

Qonunga muvofiq volontyorga bir qator huquqlarga egaligi ham belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- o'zining volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etishini ushbu Qonunda belgilangan talablarni hisobga olgan holda erkin tanlash;
- agar volontyor hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi o'rtasida tuzilgan volontyorlik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, har qanday vaqtda volontyorlik faoliyatini erkin ravishda tugatish;
- volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi va volontyorlik tashkiloti to'g'risida ishonchli axborot olish;
- volontyorlik dasturlarini bajarish, volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan yoki tavsiya qilinadigan volontyorlik aksiyalarini va boshqa tadbirlarni o'tkazish;
- volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan maxsus kiyim-bosh olish hamda yo'l haqiga, yashashga, ovqatlanishga, zarur yakka tartibda himoyalani vositalarini, asbob-uskunalarni olishga sarflangan xarajatlarning va boshqa xarajatlarning o'rni qoplanishi;
- volontyorlik faoliyati tashkilotchisidan va volontyorlik tashkilotidan tavsiyanoma tusidagi xatlarni olish;
- ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport tashkilotlariga va tabiatni muhofaza qiluvchi hamda o'rmon muassasalarining hududiga mazkur tashkilotlar va muassasalar rahbariyati bilan kelishuvga ko'ra volontyorlik faoliyatini amalga oshirish uchun kirish<sup>8</sup>.

Volontyor siyosiy jarayonlarning mantiqli kechishi uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- volontyorlarni muvofiqlashtiruvchidan, volontyorlik tashkilotidan hamda volontyorlik faoliyatining tashkilotchisidan olingan topshiriqlarni vijdonan bajarishi;
- fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzilmasligi, o'z faoliyati bilan uchinchi shaxslarga va atrof-muhitga zarar etkazmasligi, zero, biror bir shaxsning siyosiy huquqlari boshqa shaxs huquqlari boshlangan joyda cheklanishi maqsadga muvofiq;
- volontyorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan maxfiy xususiyatga ega ma'lumotlarni oshkor etmasligi;
- volontyorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'ziga berilgan moddiy resurslar hamda asbob-uskunalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi va ish tugaganidan keyin ularni qaytarishi;
- davlat organlarining mansabdor shaxslariga o'z vakolatlarini amalga oshirishida to'sqinlik qilmasligi shart<sup>9</sup>.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati J.Shirinovning ta'kidlashicha, "O'zbekistonda ko'ngillilik harakati keng rivojlangan. Lekin hozirga qadar bu masala umuman huquqiy tartibga solinmagan edi. Bu esa, ushbu qonun loyihasini ishlab chiqishning eng asosiy sababi bo'ldi. Shu tufayli, qonundan ko'zlangan maqsad ham yurtimizda ko'ngillilar faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, volontyorlik faoliyatini zamon talablari asosida yo'lga qo'yishni ta'minlash hamda rivojlantirishdan iborat etib belgilandi"<sup>10</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizga ma'lumki, bugungi kunda volontyorlik ishlari butun dunyo bo'ylab jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday faoliyat birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, bozor munosabatlarning shakllanishiga hamda xususi biznesni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, volontyorlik rivoji uchun asosiy sabablar quyidagilar:

- odamlar tabiatan altruistik (bu axloqiy tamoyil bo'lib, unga ko'ra boshqa odamlarga yaxshiliklar qilish va ularning manfaatlarini o'z-o'zidan va shaxsiy manfaatlaridan ko'ra muhimroq ko'rish) bo'lib, ular boshqalarga yordam berish istagi bilan harakat qiladi;

7 O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 12 modda. <https://lex.uz/doss/4623999>

8 Volontyorlik faoliyati to'g'risida. [http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9\\_2016.pdf \(1/2\) http://elar.urfu.ru](http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9_2016.pdf (1/2) http://elar.urfu.ru)

9 Qarang: Volontyorlik faoliyati to'g'risida. [http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9\\_2016.pdf \(1/2\) http://elar.urfu.ru](http://uza.uz; 978-5-7996-1677-9_2016.pdf (1/2) http://elar.urfu.ru)

10 Volontyorlik faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. [https://parliament.gov.uz/uz/evens/other/29115/?sphrase\\_id=5448697](https://parliament.gov.uz/uz/evens/other/29115/?sphrase_id=5448697)



- odamlar xayrli ish qilishganda, o'zlarini yaxshi (xotirjam) his qilishadi<sup>11</sup>.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, xayrli ishlar, volontyorlik, xayriya faoliyati odamlarni turli maqsadlarga undaydi. Xayriya ba'zilarida insonlarga nisbatan mehr-shafqat uyg'otsa, boshqalar uchun foyda keltiradigan faoliyat hamdir.

O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, volontyorlik faoliyati orqali kam ta'minlanganlarga, ishsizlar, ko'p bolalilar, boshpanasizlar, qarovsiz qolganlarga yordam ko'rsatish, bemorlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni, yolg'izlarni, qariyalarni va boshqa yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarni parvarishlash, tabiiy yoki texnogen tuzdagi favqulodda vaziyat oqibatida, alohida rejim, favqulodda holat joriy etilganda, ijtimoiy mojarolar, baxtsiz hodisalar natijasida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, jinoyatlardan jabrlanganlarga, qochqinlarga yordam ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, merosni, tarixiy-muhitni, dafn etish joylarini saqlab qolish, ommaviy sport va boshqa jamoat tadbirlarni tashkil etish, milliy hamda xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa yo'nalishlar amalga oshirilishi mumkin. Qonunning qabul qilinishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga volontyorlar (volontyor guruhlar, volontyor tashkilotlar) bilan ijtimoiy sheriklik to'g'risida shartnomalar tuzish orqali volontyorlar kuchidan foydalanish imkoniyati yaratildi<sup>12</sup>.

Faol fuqarolar va volontyorlik guruhlarini tomonidan tabiiy ofatlar yuz berganda, pandemiya sharoitida xayriya aksiyalari o'tkazilib, ko'plab ehtiyojmand oilalarga xayriya mablag'lari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon mahsulotlari, gigiena vositalari va boshqalar tarqatilayotganligi e'tiborga molik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Mehr-saxovat" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi PF-5999-son hamda 2020-yil 26-avgustdagi "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni bilan mukofotlash to'g'risida"gi PF-6046-son farmonlari ijrosi yuzasidan sog'liqni saqlash sohasining jonkuyar vakillari, saxovatli tadbirkorlar, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining fidoyi xodimlari hamda boshqa tashabbuskor va faol fuqarolar "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar<sup>13</sup>.

Adliya vazirligi tomonidan ham nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birga, volontyorlar kuchidan foydalanilgan holda xayriya tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Volontyorlar faoliyatidan foydalanishda, amalga oshiriladigan ishlarning og'irligiga qarab volontyorlarni tegishli tartibda tibbiy ko'rikdan o'tkazish, rejalashtirilgan mehnat turi bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi, mehnat turi va shart-sharoitdan kelib chiqib maxsus kiyim-bosh, bajarayotgan ish hajmi va ko'lamiga qarab maosh, shuningdek, turarjoy, tibbiy xizmat va issiq ovqat bilan ta'minlash, mehnat obyektini tanlashda xavfsizlik darajasi, yoshlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik kabi jihatlarda e'tiborga olinishi lozim<sup>14</sup>.

Dastur yoki aniq aksiyani amalga oshirishga javobgar bo'lgan volontyorlik faoliyatining tashkilotchisi yoki volontyorlik tashkiloti volontyorlarni muvofiqlashtiruvchini tayinlaydi. Volontyorlar guruhi uni o'z tarkibidan saylaydi. U volontyorlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ular o'rtasida ishni taqsimlaydi, har bir volontyorning ish joyi va ish hajmini belgilaydi, ishning ular tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, davlat organlari va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik qiladi va hokazo.

Tashkilotchi, agar u volontyorlik faoliyati bilan oyiga 20 soatdan ko'proq band bo'lsa, volontyor bilan shartnoma tuzishi shart. Shartnomada volontyor volontyorlik dasturi, aksiyasi doirasida amalga oshiradigan faoliyat, ish soatlari va kunlari ko'rsatilgan davr hamda boshqa shartlar ko'rsatiladi. Taraflarning har biri kontragentni bu haqda 7 kun oldin dastlabki tarzda xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Bunda sabablarni ko'rsatmasa ham bo'ladi<sup>15</sup>.

Volontyorlik harakatini xayriya yordami tarzida moddiy-texnika ta'minoti, mulkiy ta'minot yoki taqiqlanmagan boshqa shakllarda qo'llab-quvvatlash ham mumkin. Mazkur faoliyatni amalga oshirish borasidagi xizmatlarini e'tirof etish va baholash belgisi sifatida jismoniy va yuridik shaxslar mukofotlanishi mumkin.

Volontyorlik faoliyati hisobi yuritiladi, u ixtiyoriy xabardor qilish xususiyatiga ega. Bunday hisobga olishning aniq tartibini Hukumat belgilaydi. Ko'pchilikka ma'lumki, agar NNTga jalb qilinadigan jismoniy shaxslar volontyorlik bilan shug'ullansa, yondashuv o'zgacha bo'ladi. Ya'ni bu ish ixtiyoriy ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, erkin xohish-irodaga ko'ra bajariladigan, bepul asosda jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi.

11 O'zbekistonda "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi // <https://effest.uz/k/2020/10/12/zbekistonda-volontyorlik-faoliyati-t-risida-gi-qonun-qabul-qilindi.html>; O'ZA – Volontyorlik faoliyati to'g'risida <http://uza.uz>

12 O'ZA – Volontyorlik faoliyati to'g'risida <http://uza.uz>

13 O'zbekistonda "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. <https://effest.uz/k/2020/10/12/zbekistonda-volontyorlik-faoliyati-t-risida-gi-qonun-qabul-qilindi>.

14 Volontyorlik faoliyati to'g'risida <http://uza.uz>

15 Zamonov O. Volontyorlikning huquqiy doirasi belgilandi. [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/volontyorlikning\\_huquqiy\\_doirasi\\_belgilandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/volontyorlikning_huquqiy_doirasi_belgilandi).



## TAHLIL VA NATIJALAR

Volontyorlikning muhimligi shuki, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni kamaytirish va dolzarb ijtimoiy muammolarni engillashtirishga ko'maklashadi.

Ta'kidlash lozimki, dunyo miqyosida xayriya sohasida tadqiqotlar olib boriladi va davlatlarning reytinglari e'lon qilib boriladi. Xususan, Jahon xayriya indeksi (The World Giving Index) – dunyo mamlakatlarining yutuqlarini aholining xayriyaga munosabati nuqtayi nazaridan o'lchaydigan ko'rsatkichdir. Jahon xayriya indeksi 153 ta mamlakatni o'z ichiga oladi va bu mamlakatlar aholisining xayriya sohasida qanchalik faol ekanligini ko'rsatadi.

Britaniya xalqaro xayriya jamg'armasi (Charities Aid Foundation) tashabbusi bilan 2010-yildan buyon Gallup instituti (Gallup) metodikasi yordamida jamoatchilik fikri natijalari yuzasidan tadqiqotlar o'tkaziladi. Bugungi kunga qadar, jahon miqyosida xayriya sohasida olib borilgan ishlar haqida aniq ma'lumot beruvchi yagona baza mavjud. Indeksni tuzishda uchta asosiy jihat hisobga olinadi:

- 1) volontyorlik faoliyatida ishtirok etish;
- 2) begonalarga yordam berish;
- 3) xayriya tashkilotlariga pul mablag'larini o'tkazish<sup>16</sup>.

2021-yillar statistikasiga ko'ra, jahon xayriya indeksida mamlakatimiz 25 o'rinni egallagan. Misol tariqasida O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi va turli tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda nogironligi bo'lgan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2018 yildan boshlab "Biz birgamiz!" ("We are together!") ijtimoiy loyihasi amalga oshirib kelinmoqda<sup>17</sup>. Loyihaning birinchi bosqichida o'z uylarida turli xildagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan, biroq ularni sotishda qiyinchiliklarga uchrayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning tayyorlagan mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yirik savdo majmualarida bevosita Adliya vazirligining ko'magida imtiyozli asosda maxsus savdo rastalari tashkil qilinib, savdo majmualari rahbarlari bilan hamkorlik bo'yicha uzoq muddatli kelishuvlar imzolandi. Loyihaning ikkinchi bosqichida Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan "ECOBOZOR" savdo majmuasida vazirlik tomonidan ilk marotaba Nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar 1-respublika savdo yarmarkasi o'tkazildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiyasi va tadbirkorligini rivojlantirishga ko'maklashish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini erkin mehnat qilishi huquqlarini ta'minlash nafaqat davlat organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlarining ham vazifasidir. Rivojlangan davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar doimiy ravishda davlat va jamiyatning e'tiborida bo'lib keladi. O'zbekistonda ham bunday guruhga kiruvchi shaxslar hukumatimiz va volontyorlik bilan shug'ullanuvchi nodavlat tashkilotlarining asosiy e'tiborida bo'ladi. Shu bois navbatdagi yarmarka joriy yilning sentyabr oyida "Biz birgamiz" ijtimoiy loyihasi doirasida vazirlik hamda "Madad" – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti bilan birgalikda ijtimoiy sheriklik asosida o'tkazilishi rejalashtirilgan<sup>18</sup>.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z funksiyalarini volontyorlik faoliyati orqali samarali va tejamkor shaklda bajarishlari mumkin. Bunda, volontyorlik guruhlari, volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik to'g'risida shartnomalardan kengroq foydalanishlari lozim<sup>19</sup>.

Bizning fikrimizcha, volontyorlar faoliyatidan foydalanishda, amalga oshiriladigan ishlarning og'irligiga qarab volontyorlarni tegishli tartibda tibbiy ko'rikdan o'tkazish, rejalashtirilgan mehnat turi bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi, mehnat turi va shart-sharoitdan kelib chiqib maxsus kiyim-bosh, bajarayotgan ish hajmi va ko'lamiga qarab maosh, shuningdek, turarjoy, tibbiy xizmat va issiq ovqat bilan ta'minlash, mehnat obyektini tanlashda xavfsizlik darajasi, yoshlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik kabi jihatlar e'tiborga olinishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyoning rivojlangan davlatlari, volontyorlik keng tarqalgan xorijiy mamlakatlarning siyosiy tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Siyosiy jarayonlarga transformatsiyalashuvni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar natijalari jahon aholisi o'rtasida o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatish, hojatini chiqarish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga ko'maklashishga xayrixoh kishilar ko'payib borayotganligini ko'rsatmoqda.

16 YuNICEFning Yu-Report xalqaro yoshlar loyihasi rahbari J. Nurjanova volontyorlikning afzalliklari haqida. <https://kun.uz/news/2019/08/11/volontyorlik-majburiyatmi-yoki-imkoniyatlar-eshigi-jamiyat-volontyorlikdan-qanday-foйда-koradi>.

17 Jahon xayriya indeksida mamlakatimiz xayriyalar amalga oshirilishi bo'yicha 25-o'rinni egallagan. <https://xs.uz/ru/post/izuchat-mnenie-molodyozhi-po-aktualnym-voprosam-na-osnove-permanentnykh-oprosovo-pomozhet-u-report>

18 O'sha manba.

19 Volontyorlik faoliyati to'g'risida <http://uza.uz>



2. Volontyorlikni, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish ularda mas'uliyat hissini kuchaytirishga, vatan va kishilar oldidagi insoniylik burchini anglashga yordam beradi. Ular kishilarga yordam ko'rsatish orqali o'zgarlar hayotini yaxshilash bilan birga, o'zlarida boy tajriba ham orttiradilar.
3. O'zbekistonda ham volontyorlik faoliyatini keng targ'ib qilish, yoshlar o'rtasida keng yoyish uchun yetarli sharoitlar bor. Faqat puxta o'ylangan dastur asosida ish olib borish, ularni rag'batlantirish zarur.
4. Katta yoshdagi kishilarning volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ularning boy hayotiy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish imkonini beribgina qolmay, faol hayot kechirishlariga ham sabab bo'ladi. Bu esa aholi o'rtasida uzoq umr kechirish, jamiyat hayotida o'rnini saqlab qolish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 463-l-son "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". <https://www.lex.uz/doss/48401>
3. Всеобщая декларация волонтеров. Амстердам. январь 2001 г. [Электронный ресурс]. URL: [http://www.volunteer.ru/5/1/5\\_1\\_dekl\\_e.ht](http://www.volunteer.ru/5/1/5_1_dekl_e.ht)
4. Всеобщая Декларация добровольцев. Париж, 14 сентября 1990 г. [Электронный ресурс] URL: [http://www.volunteer.ru/5/1/5\\_1\\_dekl2.htm](http://www.volunteer.ru/5/1/5_1_dekl2.htm)
5. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. // "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonuni. 2003-y. 29-avgust.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 9-10 (1329-1330), 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 dekabrda O'RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2019-y., 03/19/585/4096-son).
8. Концепция развития добровольчества (волонтерства) в Российской Федерации до 2025 года [Электронный ресурс] : распоряжение, принятое Правительством Российской Федерации от 27 декабря 2018 г. № 2950-р.– URL: [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_314804/985421faba1da8d5a7dd327f05ae6cd5f9aa2c4c/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_314804/985421faba1da8d5a7dd327f05ae6cd5f9aa2c4c/) (дата обращения: 18.09.2019)
9. Волонтеры Конституции / Официальный сайт движения Волонтеры Конституции. – URL: <https://волонтеры-конституции.рф/#good-things> (дата обращения: 12.05.2020).

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.